



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



MIRTEMIR SHE'RIYATIDA ANJAMBANGNING STILISTIK POTENSIALI

Raxmatova Dilfuza Axmedovna

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Samarqand davlat universiteti,
raxmatovadilfuza99@gmail.com*

Annotatsiya: *Mirtemir she'riyatida anjambang hodisasini o'rganish o'zbek poetik nutqining ichki imkoniyatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mirtemir ijodi til, ritm va mazmun uyg'unligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlarida sintaktik qurilishning odatiy chegaralari buzilib, misra oxirida tugallanmay, keyingi satrga ko'chib o'tuvchi fikr oqimi – anjambang hodisasi keng qo'llanadi.*

Kalit so'zlar: *anjambang, she'riyat, emotsional bo'yoq, ritmik moslik, poeziya, nasriy she'r, falsafiy xulosa*

Аннотация: *Изучение феномена анжамбманга в поэзии Миртемира имеет большое значение для понимания внутренних возможностей узбекской поэтической речи. Творчество Миртемира отличается гармонией языка, ритма и содержания. В его стихах широко используется феномен анжамбманга – потока мысли, нарушающего обычные границы синтаксической конструкции и не заканчивающегося в конце стиха, а переходящего на следующую строку.*

Ключевые слова: *поэзия анжамбманг, эмоциональная окраска, ритмическая гармония, прозаическое стихотворение, философское заключение*

Abstract: *The study of the phenomenon of enjambment in Mirtemir's poetry is of great importance in understanding the internal possibilities of Uzbek poetic speech. Mirtemir's work is distinguished by the harmony of language, rhythm and content. In his poems, the phenomenon of enjambment - a flow of thought that breaks the usual boundaries of syntactic construction and does not end at the end of the verse, but moves to the next line - is widely used.*

Keywords: *anjambang poetry, emotional coloring, rhythmic harmony, prose poem, philosophical conclusion*

Anjambang gap yoki gapning qatori uzilishi bo'ylab davomi. U o'quvchini bir satrdan ikkinchisiga o'qishni davom ettirishga undaydi, chunki ko'pincha o'quvchi keyingi satr yoki satrlardagi band yoki jumlaning tugatmaguncha to'liq ma'noga ega bo'lmaydi. She'rda butun bir millatning hayot va borliqqa munosabat yo'sinini tubdan o'zgartirish kerakligi shoimi muvozanatdan chiqaradi [1.212]. Sitatalar yetakchi poetika va pragmatika manbalariga tayangan holda berildi. Anjambang sintaktik tugallanishni misra chegarasidan tashqariga surish orqali kutilma va taranglikni kuchaytiradi hamda o'quvchi kutishini intensivlashtiradi. Bu holatda she'riy ma'no bir zumda emas, balki bosqichma-bosqich ochiladigan semantik jarayon sifatida shakllanadi. O'quvchi ma'noni tiklash jarayonida muallif bilan "hamkorlik"



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qiladi, bu esa pragmatik ta’sirchanlikni oshiradi [2.77-78]. Anjambang kutilgan pauzani buzib, emotsional taranglik va dramatik effektini kuchaytiradi. Mirtemir ijodida anjambang hodisasi keng qo‘llanilgan.

Mirtemirning ijodiy qiyofasini belgilaydigan, uni o‘zbek kitobxonini uchun ardoqli qilgan narsa – uning she’riyati. Mirtemir samimiy tuyg‘ularni, nozik kechinmalarni sodda va tushunarli ifodalay oladigan san’atkor. Muallif nutqining his-tuyg‘uga boyligi, individual emotsional bo‘yoqning ustunligi, nutqning ma’lum ritmik qonuniyatga mosligi, o‘ziga xos intonatsiyaga egaligi, pauzaning ko‘pligi nasriy she’rning muhim xususiyatidir. Unda ba’zan alohida so‘z bir yoki bir necha gapga teng keladi. Ko‘p hollarda gap yoki so‘zlar so‘roq, undov ohangiga ega bo‘ladi. Oybek, Usmon Nosir, Mirtemir va boshqa shoirlar ijodida bunday she’rning namunalarini ko‘rish mumkin. Mirtemirning ”Onaginam” she’rida ona oldida farzandlik burchini o‘tay olmagan kishining afsuslari ifodasi tasvirlangan. She’r anjambang shaklida yozilgan bo‘lib, boshdan oyoq bir xil ohangda, bir xil zarbda o‘qilmaydi. She’rdagi “botguvchi”, “sizlatguvchi”, “chekuvchi”, “tekkuvchi”, “g‘ajiguvchi”, “achiguvchi” kabi sifatlashlar birinchi bandning qo‘fiyasi bo‘lib kelgan va she’r jozibasini oshirishda, kishi ruhiy holatini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shoir “bedavo sizlovuqday sizlatguvchi - g‘ashlik”, “tovonimga chaqir tikanakday botguvchi-g‘ashlik” deb onasini so‘nggi manzilga kuzatolmagan holatini ruhiy iztiroblar iskanjasida tasvirlaydi. Dunyoga qayta kelishimga ko‘zim yetsaydi, jon bergan onamni ko‘rishimga ko‘zim yetsaydi, tizzasiga bir nafas bosh qo‘yishimga ko‘zim yetsaydi, onalik mehriqga obdan to‘yishimga ko‘zim yetsaydi, “oq sutingni oqlay”, - deyishimga ko‘zim yetsaydi menda g‘ashlik bo‘lmasdi deya taskin ruhiyatini ifodalaydi:

Odam bo‘ldimmi menam?

Yigit yoshimgacha bir chelak suv keltirib bermagan bo‘lsam,

Yo tashnaligingcha bir kosa sharbat to‘ldirib bermagan bo‘lsam,

Yo non yopishing uchun

Hatto bir yo‘la bir kun

Sahrodan o‘tin orqalab kelmagan bolangman... [10.366]

Mirtemir “Onaginam” she’rida onasini arziyas yumushini ado etolmagani, sigirni podadan ayirish, echkini hovliga qayirish, onaning og‘zidan so‘z chiqmay yelmagani, uning bir ishorasiga yuz o‘mbaloq oshib bajarmagani, onasini jindak xushvaqt qilgani, jindak xushbaxt qilgani tagsiz jarlardan o‘tolmagani, so‘nggi yo‘lga kuzatolmagani “tog‘day zil”, “abadiyatday cheksiz apmon” bo‘lib qoldi dilimda deya nadomat qiladi:

Elga xizmatim-senga xizmatim emasmi, axir,

El meni farzandim demasmi, axir!

Rozi bo‘l, odam sanalay menam...

Dunyoga qaytib kelurman,

Lekin boshqa o‘g‘il bo‘lib... [7.4]

Ushbu she’rda shoirning diliga qiynoq beruvchi, qalbini azoblovchi tuyg‘u g‘oyat samimiy aks ettirilgan. Shoir boshiga qora kunlar tushgan mahal oilasidan uzoqda tuhmat jabrini tortar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ekan, to‘satdan onasining vafoti haqidagi sovuq xabar uning dilini teshib o‘tadi. Onasini hatto so‘nggi yo‘lga ham o‘zi kuzata olmagan farzandning qonli bag‘ridan to‘kilgan satrlar anjambmentning go‘zal namunasi hisoblanadi.

Mirtemir millat turmush tarzi, dunyoqarashi va orzu-intilishlarining betakror qirralarini o‘zga ijodlardan farqli xalqona bir yo‘sinda o‘zbek badiiyatiga olib kirgan hassos, donishmand shoir. She‘riyatda so‘zning inja ma‘no nozikliklari, qadim va turkiyona mavqelari qad rostlab, shoirning fusunkor, zakiy hikmatlariga xizmat qiladi.

Anjambmang – she‘riy satr oxirida sintaktik birlik tugallanmasdan, keyingi satrga o‘tib ketishi hodisasidir. Bu texnika ritm, intonatsiya va semantik kuchlanishni oshiradi hamda o‘quvchida kutish effektini yuzaga keltiradi. Anjambmang poetik shakl va sintaksis o‘rtasidagi ziddiyat orqali estetik ta‘sirni kuchaytiradi [3.161].

Mirtemirning “Men seni injitmayman” she‘ri shoirning turmush o‘rtog‘i Yorqinoyga, turkistonliklar tili bilan aytganda, To‘rash kelin oyiga bag‘ishlangan. Gap shundaki, 1960-yilda qardosh yozuvchilar o‘rtasida adabiy aloqalarning yaxshi yo‘lga qo‘yilgani bois Mirtemir qirg‘iz yurtiga borib, qardosh yozuvchilarning mehmoni bo‘lgan va shu yerda o‘zining “Qirg‘iz she‘rlari” turkumini yoza boshlagan. O‘zbekona tanti tabiatli shoir biror joyga garchand menmon bo‘lib borgan bo‘lsa-da, ko‘proq mehmonlarga dasturxon yozish va ular ko‘nglini olishni sevgan. Bunday paytlarda shoirningsayohatga birga borgan rafiqasiga also tinim bo‘lmagan:

Men seni injitmayman
Va lekin tinchitmayman...
Charx urib, bo‘z to‘r‘ayday bo‘zlashim bor boshingda
Ey, sochlaring to‘lqini tun singari sim-siyoh,
Xol kabi paydo bo‘lgum yonog‘ing yo qoshingda
Ey, izlaring g‘ubori ko‘zlarimga to‘tiyo... [9..289]

Shoir rafiqasi uchun saratonda sel bo‘lib lolazor yaratishi, qahratonda yel bo‘lib, gulning atrini taratishi, yo‘l yurib cho‘llab qolsa, buloqday shildirashi, dasht tomon yo‘l olsa, o‘tloq bo‘lib yastanishini chuqur hissiyot bilan tasvirlaydi. She‘rda soyabon istab qolsang, darrov chinor daraxtiga aylanishi, cho‘milishni istasang anhor bo‘lishini, bog‘da kezayotganda misoli barg bo‘lib “sening dog‘ingda kuyib juvonmarg bo‘lmasaydim” deb shivirlashini dardli ohanglarda izhor etadi:

Bu dunyoda hech kim yo‘q senga menday mahliyo
Umidim bor-qaragung axiyri qiyo-qiyo...
Epkin bo‘lib saharda
Gulzoringda kezurman
Qo‘shiqlarim avj parda
G‘unchalaring uzurman.

Shoir shamol kabi sezdirmay kiprigingga qo‘naman, suratingga ozor bermay boqaman, qush bo‘lib qochsang tarlon bo‘lib quvaman, har mushkul, har xatar, har balodan saqlab o‘lguncha ardoqlayman, deb o‘zining sof, samimiy tuyg‘ularini bayon etadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Anjambman (fransuzcha enjambement –“qadam tashlab o‘tish”) she’riy nutqda fikrning bir misradan ikkinchi misraga sintaktik uzluksiz o‘tishini anglatadi. Bu usul shoirga ritmik erkinlik yaratish, ohangni jonlantirish hamda mazmuni yanada ta’sirchan ifodalash imkonini beradi [4.290]. Mirtemir she’riyatida anjambang nafaqat shakliy vosita, balki chuqur lingvopoetik ma’no yuklovchi unsur [6.15] sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoir ayrim hollarda fikrni ataylab uzib, keyingi misrada davom ettirish orqali o‘quvchining diqqatini muayyan so‘z yoki obrazga jamlaydi. Bu esa poetik diskursda emotsional kuchaytirish, dramatik pauza yaratish va ichki ritmni boyitishga xizmat qiladi [5.56]. Natijada, Mirtemir she’rlarida anjambman hodisasi faqat sintaktik og‘ish emas, balki mazmuniy va estetik yuklama tashuvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, Mirtemir she’riyatida anjambang hodisasi shoirning badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim lingvopoetik vositalardan biridir. U misralar orasidagi sintaktik chegaralarni buzish orqali fikr oqimining uzluksizligini ta’minlaydi, she’rning ichki ritmini jonlantiradi va ohangdorligini kuchaytiradi.

Mirtemir anjambangdan nafaqat shakliy usul sifatida, balki mazmuni chuqurlashtiruvchi, emotsional ta’sirni oshiruvchi vosita sifatida foydalanadi. Misra uzilishi orqali o‘quvchi e’tibori muayyan so‘z yoki obrazga qaratilib, poetik dramatism va semantik urg‘u kuchayadi. Bu esa she’rning ta’sirchanligini oshirib, undagi g‘oya va hissiyotlarning yanada yorqin ifodalanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, anjambang Mirtemir ijodida individual uslub belgisiga aylangan bo‘lib, uning poetik tafakkuri erkinligi va til imkoniyatlaridan unumli foydalanishini ko‘rsatadi. Demak, shoir she’riyatida anjambang hodisasi nafaqat sintaktik og‘ish, balki badiiy-estetik mazmuni boyituvchi, poetik diskursni shakllantiruvchi muhim omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Mirtemir ijodida anjambangni tahlil qilish orqali uning individual uslubi, poetik tafakkuri va badiiy nutq qurilishidagi o‘ziga xosliklarini chuqurroq anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ummat To‘ychiyev. O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi. –Toshkent: Fan. 1985. 212-bet
2. Grigoryev V.P. Poetika slova. –Moskva: Nauka. 1979. 77-78 b.
3. Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. –Moskva: Izd-vo AN SSSR, 1963. 13, 161-b.
4. M. Jirmunskiy. Teoriya stixa. – Leningrad: Sov. pisatel, 1975, 14, 290-betlar
5. Tinyanov Yu.N. Problema stixotvornogo yazika. –Moskva: Sov. pisatel. 1965.
6. B. Jirmunskiy. Vvedeniye v metriku. – Leningrad: Akademiya. 1925. 15 b.
7. Mirtemir. Yodgorlik. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978, 144 sahifa, 4-bet



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



8. Mirtemir. She'rlar. O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – Toshkent, 1961. 247-bet
9. To'xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot. III qism. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010. 289-bet
10. Mirtemir. Asarlar. To'rt jildlik. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980–384 b. 366-bet

